

ISHLAB CHIQLGA VAKHIDLIGI
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRGILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yilning 17-iyun - 2023 yilning 20-iyun - soni buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORGY ETUGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

**60712400 – Avtomobilsozlik va traktorozlik bakalavriat ta'lim yo'naliشining
malaka talablari**

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti asosiy qoidalari", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti Oliy ta'llib yo'naliшhleri va mutaxassisliklari klassifikatsiya", O'zbekiston Respublikasi Milliy va jumro malaka davlati standarti, asosiy standartlar va koddilar bo'yinchalik taklif qilingan "Jihatishchilgan va rasmiy" hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi malaka hisobligan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'liz, fan tegishlidir.

ЎЗР ОҮМТВ

Бўйруқ № 399

2023.08.20

Toshkent-2023

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti;
 - “BMKB Agromash” AJ

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil « 7 » 08 dagi 399 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r

	bet
1. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> bakalavriat ta'lif yo'naliшining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> ta'lif yo'naliшi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	4
1.2.3. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yildigan talablar.....	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> bakalavriat ta'lif yo'naliшi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yildigan umumiy talablar	7
2.3.1. Kvalifikasiya.....	8
2.3.2. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> bakalavriat ta'lif yo'naliшi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar;	8
2.3.3. 60712400 - <i>Avtomobilsozlik va traktorsozlik</i> bakalavriat ta'lif yo'naliшi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i	11

1. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik bakalavriat ta'lif yo'naliшining umumiy tavsifi

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofiy ta'lif shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lif shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat dasturining ta'lif shakllariga ko'ra o'qishni me'yoriy muddatlari kunduzgi ta'linda 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lif yo'naliшi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi **60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik** ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta'lif muassasalarini uchun talablar majmuuni ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

- mazkur ta'lif yo'naliшi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lif muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;
- ta'lif yo'naliшining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lif muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta'lifni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lif muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lif tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik fan va texnika sohasidagi yo'naliш bo'lib, avtomobilsozlik va traktorsozlikdagi ishlab chiqarish jarayonlari, avtobillar va traktorlar ishchi jarayonlar nazariyasini o'zlashtirish va tadqiqot qilish, ularning qism va agregatlarini loyihalash, ishlab chiqarishning samarali jarayonlarini ta'minlashga yo'naltirilgan metodlar va vositalar majmuuni qamrab oladi.

1.2.2. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- avtobillar, traktorlar va ularning agregat va qismlarini loyihalash;
- avtobillar, traktorlar ishlab chiqarishning samarali texnologik jarayonlari;
- avtobillar, traktorlar ishlab chiqarish va foydalanish;
- avtobillar, traktorlar ishlatishning samarali jarayonlari;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalari; kasb-hunar kollejlaridagi o'quv-tarbiya jarayoni.

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lif yo'naliшi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilarini pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lif muassasalarida

bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:

- muhandislik - qidiruv va loyiha-konstrukturlik faoliyati;
- ishlab chiqarish – texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy – tadqiqot faoliyati;
- foydalanish-servis faoliyati.

1.2.4. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

Muhandislik-qidiruv va loyihamiyyat-konstrukturlik faoliyatida:

- avtomobillar va traktorlar uzellari, qismlari, detallari va yig'ma birliklarining loyihasini ishlab chiqish qobiliyatları;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
- loyihamiyyat va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- avtomobillar va traktorlar ishchi parametrlarini aniqlash va bular bo'yicha sinovlarni o'tkazish qobiliyatı;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- muhandislik ishi jabhasidagi ob'ektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;
- tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtiroy etish;
- ob'ektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatatsiya xavfsizligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;
- kasbiy etika koidalariga rioya qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan qurilish ishlab chiqarishi texnologik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarni bajarishda sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'inining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish ko'nikmalari.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat ob'ektlari holatini tahlil qilishda ishtirok etish;
- muhandislik ishi sohasidagi ob'ektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirok etish;
- samarasiz vaqt, mehnat va moddiy resurslarni kamaytirish, ratsional texnologik jarayonlarni tanlash bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishda qatnashish;
- muhandislik ishi ta'lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy mambalarini o'rganish;
- tahlil, hisobotlar va ilmiy publikatsiyalarni tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

Foydalanish-servis faoliyatida:

- muhandislik ishi ta'lim sohasiga tegishli ob'ektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni sinash, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish;
- muhandislik ishi ta'lim sohasiga tegishli ob'ektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo'llash.

2. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalariiga talablar

2.1. Umumi kompetensiylar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjalarni va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiylar:

- me'yoriy-huquqiy hujjalarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- avtomobillar va traktorlarning uzellari, qismlari, detallari va yig'ma birliklarining loyihasini ishlab chiqish qobiliyatları ko'nikmalariga ega bo'lish;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarini ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;
- loyihaviy va dasturiy hujjalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- avtomobillar va traktorlar va ularning uzellari ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- konstruktorlik byurosi, yig'uv va sinov sexida usta, katta usta, ishlab chiqarish mexanigi va b.;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- avtomobillar va traktorlarni yig'ish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish;
- muhandislik va konstruktorlik yechimlarini amaliyatga tadbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- avtomobillar, traktorlar foydalanish va servis ishlarini tashkil qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirot etish.
- birlamchi konstruktorlik, texnologik yoki ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;
- avtomobilsozlik va traktorsozlik tarmoqlari va sohalarini zamonaviy muammoli mavzular bo'yicha texnik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish.

2.3. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar **majburiy va tanlov** fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

1.Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyiligi bo'yicha):

- Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.
- Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lмаган fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari etarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

2.Tanlov fanlari.

- Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga

ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo‘lмаган qismi taqsimlanishi mumkin.

➤ Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagen ta’lim yo‘nalishidan qat’iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko‘p bo‘lмаган qismi taqsimlanishi mumkin.

O‘quv rejasidagi fanlar mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar

A. Majburiy fanlar

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to‘ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo‘yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo‘lgan fan bo‘yicha talabaning mashg‘ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarni yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo‘lмаган fanlar. Bunda mazkur fanlar bo‘yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo‘yicha o‘zlashtirish ballari etarli bo‘lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo‘yicha talabaning mashg‘ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

B. Tanlov fanlar ta’lim oluvchilar qo‘srimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo‘lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtadan kam bo‘lмаган o‘rnini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O‘quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo‘lishi mumkin.

C. Malakaviy amaliyot.

Bakalavrular tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o‘tkaziladi:

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma’lumot to‘plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo‘llanilishi mumkin.

2.3.2. Kvalifikasiya: Muhandis-mexanik

2.3.3. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4920	164
Tanlov fanlari	1710	57
Malakaviy amaliyot	420	14
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

**2.3.4. 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik bakalavriat ta'lim yo'naliishi
bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajimi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	4920	164	
1.01	O'RT11104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	DIN11204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	KIM11204	Kimyo	120	4	2
1.04	XT12408	Xorijiy til 1,2	240	8	2,4
1.05	FIZ11210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM111315	Oliy matematika 1,2,3	450	15	1,2,3
1.07	O'EYT11104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	TTAT11104	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	1
1.09	MKG11104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	1
1.10	MS12404	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	8
1.11	SIM14804	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	6
1.12	FAL13604	Falsafa	120	4	5
1.13	EKA13504	Ekologiya	120	4	7
1.14	XFX14704	Hayot faoliyati xavfsizligi	120	4	
1.15	MEX11522	Mexanika (NM, MQ, MMN, MD)	660	22	2,3,4,5
1.16	MKMT12409	Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi	270	9	3,4
1.17	LJAA12306	Loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish asoslari	180	6	3
1.18	ELTEX12305	Elektrotexnika va elektronika	150	5	3
1.19	GIDR12304	Gidravlika va gidropnevmo-yuritmalar	120	4	3
1.20	ATK12509	Avtomobil va traktorlarning konstruksiyasi	270	9	4,5
1.21	MTAAYT136 10	Mashinasozlik texnologiyasi asoslari va avtotraktorsozlikda yangi texnologiyalar	300	10	5,6
1.22	TTB14706	Texnik tizimlarni boshqarish	180	6	7
1.23	ATLUGT1481 0	Avtomobil va traktorlarni loyihalash, ularning geoinformatsion tizimlari	300	10	7,8
1.24	ATSPA14806	Avtomobil va traktorlarni sinash, puxtalik asoslari	180	6	8
2.00		Tanlov fanlari	1710	57	
2.00		Tanlov fanlari (7 ta fan)	1710	57	1,2,4,5,6,7,8
		Jami	6630	221	
		Malakaviy amaliyot	420	14	4, 6, 8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5	8
		Jami	570	19	
		HAMMASI	7200	240	



Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

OKS 01.040.01

Guruh T 55

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, avtomobilsozlik va traktorsozlik, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilar**
ISHLAB CHIQILGAN:

**Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti**



Rektor prof. S.M. Turabjanov

2023 yil « 03 » 07

“BMKB Agromash” AJ



Bosh direktor R.X. Nurmatov

2023 yil « 03 » 07

M.O.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'lifini rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq
etish markazi**

Direktor Sh.U. Yakubov



M.O.

**“Qishloq xo'jaligi mashinasozligi
konstrukturlik-texnologik markazi” MChJ**

Direktor A.B.Yusupov

2023 yil « 06 » 07

M.O.



Toshkent davlat transport universiteti

Rektor prof. O.K.Abduraxmanov



2023 yil « 06 » 07

“Toshkent traktor zavodi” MChJ

Bosh direktor A.A. Muxitdinov



2023 yil « 06 » 07

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari va
o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtaida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“7” 09 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “BMKB Agromash” AJ direktori R.X. Nurmatov, Toshkent davlat transport universiteti rektori prof. O.Q.Abduraxmanov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov birligida ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengayfirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risidagi” F-31-son farmoyishi ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 27 iyundagi 285-son buyrug'iiga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar hamda inobatga olingan.

Ta'lif yo'naliishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

“BMKB Agromash” AJ direktori

R.X. Nurmatov



**Toshkent davlat transport universiteti
rektor, professor**

O.Q.Abduraxmanov



**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektori, professor**



S.M.Turabdjanov

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida
ishlab chiqilgan 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik yo‘nalishi
bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va
zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari
va o‘quv rejasiga**

TA Q R I Z

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minalash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasasi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”, qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, magistrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiyl yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablарини ishlab chiqishda ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi

bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalapi talablapini qoniqtipadi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Toshkent davlat transport universiteti rektori professor

O.K.Abduraxmanov



60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik magistratura mutaxassisligi bo'yicha tayyorlangan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini axriq tajribasi asosida olib urinib. Juhon, la'mo olib-chalgan cheqqa bilim mustaqil foyplash, yaxshi kafo-kor malakasi shakllantirishga ta'minlashtirilishi olib, e'tibor qaratilgan magistrarning fanlari o'sebelerish jarayonda tajriba, ko'nikmeler haqida tashavvuga eg-bo'lish, qo'yilgan talablamli bilishni va slardan sunʼuratli foydelana olshabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va jo'quv rejanda fan oldida turli dozorf musammolar, o'rjanish va ulanish joyiy yachimini izlob topishda hamonaviy usub va texnologiya, seminar moshig'ulotlariga, mustaqil bilim olish haqida ohiga o'sha kundanli qabit qilishga ko'ng o'rnatilgan.

Malaka talablari ni shilab chiqishda talabning kelgusida foylyat olib beradigan ob'e'ldiari misolida fan va texnologiya usor yutuqlaridan foydalangan bolsoj jahon to'liq mukofotga integral taʼsirish tarmovillari va amal qilingan. Malaka talablardagi bloklar bo'yicha, fanlar tafsibi, ularning o'zaro nisbatli bitiruvchilarning umiyyati mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilenlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish mugʻal nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlari shakllantirishda ularning mezonuni jihatida izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kuni talabidan keti chiqib yangi fanlar kiritilgan.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab
chiqilgan 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik yo‘nalishi bo‘yicha oliy
ma’lumotli bakalavrilar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy
bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv
rejasiga**
TA Q R I Z

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik magistratura mutaxassisligi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019 yil 22 avgustdagи PQ-4422 “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilapda chuquq bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, magistrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan ob’ektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta’minalangan bo‘lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste’molchilari bo‘lgan korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60712400 - Avtomobilsozlik va traktorsozlik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasi oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**“Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi
konstrukturlik-texnologik markazi”
MChJ direktori**

A.B.Yusupov

